

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

DA'VOGARLIK PSIXOLOGIK FENOMENINING PSIXOLOGIYADA TADQIQ ETILGANLIK HOLATI

Jurayev Vohidjon Muhammedovich

*Qo'qon davlat pedagogika instituti psixologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.*

Ismoilov Islomjon Qaxramonjon o'g'li
Qo'qon DPI jismoniy madaniyat fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada da'vogarlikni tuzilish darajasi, kashf etilishi va da'vogarlik psixologik fenomenining psixologiyada tadbiq etilganlik holati to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Da'vogarlik darajasi, da'vogarlik fenomeni, tadqiqot tanlanmalari,

Shaxsdagi individual-psixologik xususiyat va shaxsiy sifatlar insondagi faoliyatini aniq belgilashda, shuningdek shaxsnинг psixologik portreti shakllanishida muhim omillardan hisoblanadi. Shaxs psixologiyasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanuvchi shaxs sifatlari va individual-psixologik xusuusiyatlari psixologiyada shaxsdagi o'ziga xoslikni o'rganishdagi asosiy tadqiqotlarning obe'ktlari bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot obektlarining har birini psixologiyada asoslangan ilmiy tavsifi mavjud bo'lib, ularning har biri fanda doimiy o'rganilish sharti qo'yiladigan ilmiy tushunchalar sanaladi. Shunday ilmiy tushunchalar qatorida "da'vogarlik darajasi" tushunchasi ham mavjud. Ushbu tushuncha zamonaviy psixologiyada eng ko'p o'rganish talab etiladigan tushunchalar sifatida dolzarb masala bo'lib kelmoqda.

"Da'vogarlik darajasi" tushunchasi ilk bor XX asrning 1930-yillarida K.Levin tomonidan fanga kiritilgan. Mazkur tushunchani o'rganishga turtki bo'lgan holat, yangi xatti-harakatlarga o'tish determinantlarini aniqlashga urinish edi. K.Levin mazkur masalada o'z nazariyasini ishlab chiqadi. Mazkur nazariya quyidagi ikki qarashdan iborat:

1. Maqsadga mos keladigan harakat mazkur maqsadni amalga oshiradigan maxsus bosim holati bilan belgilanadi.

2. Agar maqsadga erishilsa, "ichki zo'riqish" nolga teng bo'ladi.

K.Levinning nazariyasiga ko'ra insonning harakatga undash uchun maxsus bosimli vaziyat hosil bo'lishi kerak. Bunda bosim ham tashqi(tashqi ijtimoiy ta'sirlar, ijtimoiy ehtiyojlar, ijtimoiy bosim, tashqi motivatsiya) va ichki bosim(psixoemotsional zo'riqishlar, shaxsiy ehtiyojlar, ichki motivatsiya, da'vogarlik darajasi, psixologik resurslar). Agar inson umumiy maqsadga erishgandan so'ng insondagi harakatga intilish o'z-o'zidan eng quyi darajaga tushadi. Shundan so'ng

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

insonda yangi ehtiyojlar shakllanada va yuqoridagi holat tizimli shaklda davom etadi. K.Levin tomonidan taklif qilingan nazariya insondagi shaxslararo munosabatlarga kirishishda, o‘z mehnat faoliyatini olib borishda va insonning xatti-harakatlarini asoslashda muhim nazariyalardan biri hisoblanadi. Yuqoridagilardan tashqari K.Levin da’vogarlik darajasi tushunchasining xatti-harakatlarda ifodalanishini quyidagicha izohlagan:

- joriy muvaffaqiyat avvalgi xatti-harakatning tajriba natijasidir;
- maqsadni aniqlashtirish yoki da’vogarlik darajasini belgilab olish - bu ehtiyojlarni saralashga yordam beradi;
- natija - amalga oshirilgan xatti-harakatning belgilab olish jarayoni. Mazkur bosqichda kutilgan natija hamda amaldagi natijaning o‘zaro mos kelishi belgilanadi;
- natijadan keyingi reaksiya - muvaffaqiyatdan so‘ng insonda da’vogarlik oshishi yoki muvaffaqiyatsizlikdan keyin tushish ehtimoli mavjud.

Da’vogarlik darajasini ko‘plab psixologlar tomonidan ikki xil shakli ko‘rasatib o‘tiladi:

1. Adekvat
2. Noadekvat

Adekvat da’vogarlik darajasi shaxsning o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholagan holda ma’lum bir ehtiyoj va maqsadlarni belgilangan holda xatti-harakatlarini yo‘naltira olish imkoniyati bilan belgilanadi. Noadekvat da’vogarlik darajasi esa o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olmasligi va “Men”ining yaxshi shakllanmaganidan kelib chiqadi. Shu o‘rinda noadekvat da’vogarlik darajasining o‘zi ham ikkiga ajratgan holda tahlili qilish mumkin:

1. Yuqori.
2. Past.

Yuqori da’vogarlik darajasi o‘ta yuqori o‘zi-o‘ziga baho bilan va noto‘liq “Men”-konsepsiya bilan tavsiflanadi. Past da’vogarlik darajasi noto‘liqlik kompleksi, qo‘rquv va jarohatlar tufayli shakllanadi.

Yuqori yoki past da’vogarlik darajasiga ega shaxslarda quydagicha shaxs sifatlari namoyon bo‘lishi mumkin:

1. Juda qiyin yoki juda oson maqsadlarni tanlaydi.
2. Raqobat, bahslardan o‘zini olib qochadi.
3. Juda ko‘p tashvishli holatda bo‘ladi.
4. O‘z xatti-harakatlarini natijasini baholashda ko‘p adashadi.
5. O‘z xatti-harakatlarini va uning natijasini baholashdan qochadi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Da'vogarlik darjasini tushunchasining psixologiyada tavsifini belgilashda va masalani tahlil qilishda ko'plab tadqiqotchilar turlicha yondashuvlar asosida talqin qilishga harakat qilishgan. Quyida da'vogarlik darjasining psixologiyada turli jihatdan ilmiy jihatni ko'rib o'tilgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek XX asr boshlaridan boshlab da'vogarlik darajasini aniqlash bo'yicha tadqiqot shakllari, turli metodik usullar ishlab chiqilgan, tushunchani kengroq o'rganishga harakat qilingan. Mazkur tushunchani ilk o'rganish davridayoq shaxs tuzilmasi sifatida tavsiflangan va mazkur tavsif hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagani e'tiborga molikdir.

Da'vogarlik darjasining mazmunini o'rganishda olimlar o'z izlanishlarini olib borishgan. Da'vogarlik darjasini motivatsiyani o'rganish tadqiqotlar doirasida muhim o'rganoluvchi shkala sifatida qayd etiladi. Ushbu tushunchaning motivatsion sohaga bog'liq holda o'rganolishiga da'vogarlik darjasini shaxsning motivatsion sohasi tarkibidagi sifat sifatidagi fikrlar mavjudligidadir. Turli vaziyatdarda muvaffaqiyatga erishishdagi xulq-atvorning individual tafovutlarni tushuntiradigan tushuncha sifatida xizmat qilishi mumkin. Motivatsiyani o'rganish bo'yicha o'z izlanishlarini olib borgan X.Xekxauzen da'vogarlik darjasini muvaffaqiyatga erishishda muhim o'rin tutuvchi o'zi-o'ziga baholashini belgilab beruvchi muhim sifat ekanligini ta'kidlaydi [80].

X.Xekxauzen da'vogarlik darjasini yaqqol qiymat emas, balki muvaffaqiyatga erishilganlik darjasini bilan o'zgarib turuvchi aniq maqsad sifatida ko'rasi. Har bir individning insonlararo motivatsion tafovutlarni belgilovchi doimiy qiymat mavjud.

Da'vogarlik darjasini mutlaq qiymatni, shuningdek faoliyat natijaviylik darjasini o'zida namoyon qiladigan mezondir. Bundan tashqari yuqorida keltirib o'tilgan mezonlar bir vaqtning o'zida muvaffaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlikni kamaytirish maqsadida faoliyatni yo'naltirib turishda ham vosita hisoblanadi. Da'vogarlik darjasini inson uchun majburiy "da'vogarlik" sifatida namoyon bo'ladi hamda o'z-o'zini faollashtirishda ehtiyoj yoki yuklatilgan vazifa oldidagi maqsad sifatida yoki ijtimoiy normalar bo'lib xizmat qiladi. Aynan muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik o'ziga baholashga bevosita ta'sir qiladi. X.Xekxuzen ta'kidlashicha da'vogarlik darjasini etika, iqtisodiyot, ijtimoiy masalalar va sotsial mavqe masalalaridagi shaxsning o'zaro munosabatlarga kirishganda namoyon bo'ladi [81].

Xulosa qilib aytganda, psixologiyada da'vogarlik darjasini o'rganolishi kerak bo'lgan fenomenlardan hisoblanadi. Ayniqsa jismoniy tarbiya yo'nalishi bo'yicha sportchilarni da'vogarlik darjasini o'rganish xozirgi zamon tadqiqotlari uchun yangi yo'nalish hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность. СПб.: Питер; М.: Смысл., 2003. 860 с.
2. 81.Хекхаузен Х. Психология мотивации достижения. СПб.: Речь, 2001. 240 с.
3. 82.Чепляев В.Л. Субъективный контроль и регуляция социального поведения безработного- Режим доступа: <http://window.edu.ru>, свободный.
4. 83.Шаболтас А. В. Мотивы занятия спортом высших достижений в юношеском возрасте: автореф. дис...канд. психол. наук. – СПб., 1998. – 21 с.
5. Jurayev, Vohidjon. "SPORTCHINING FAOLIYAT SAMARADORLIGIDA DA'VOGARLIK DARAJASI AHAMIYATINI EMPIRIK NATIJALARI TAHLILI." Science and innovation in the education system 2.7 (2023): 106-112.
6. Жураев, Вохиджон Мухаммединич. "СПОРЧИЛАРНИНГ ДАЪВОГАРЛИК ДАРАЖАСИ ВА ИРОДАВИЙ СИФАТЛАРИНИНГ ПСИХОЛГИК ХУСУСИЯТЛАРИ." Academic research in educational sciences 4.TMA Conference (2023): 894-900.
7. Jurayev, Vohidjon. "SPORTCHINING FAOLIYAT SAMARADORLIGIDA DA'VOGARLIK DARAJASI AHAMIYATINI EMPIRIK NATIJALARI TAHLILI." Science and innovation in the education system 2.7 (2023): 106-112.
8. Жураев, Вохиджон Мухаммединич. "СПОРЧИЛАРНИНГ ДАЪВОГАРЛИК ДАРАЖАСИ ВА ИРОДАВИЙ СИФАТЛАРИНИНГ ПСИХОЛГИК ХУСУСИЯТЛАРИ." Academic research in educational sciences 4.TMA Conference (2023): 894-900.
9. Tahirjonovich, Arabboev Kahramon. "Matters of physical education in kaikous"“QABUSNAMA”." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.1 (2023): 223-226.
10. Rashitovna, Muratova Gulnara, and Arabboev Qahramon Tokhirzhonovich. "Features Of Physical Education Of Preschoolers." International Journal of Early Childhood Special Education 15.2 (2023).
11. Араббоев, Қ. Т. "Жисмоний тарбия дарсларида талабалар ўқув-спорт фаоллигини оширишда шахсга йўналтирилган таълим турларининг ўрни." Фан-спортга Учредители: Узбекский государственный университет физической культуры и спорта 6: 68-71.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

12. Arabboyev, Qahramon. "Madaniy me'roslarimizda jismoniy tarbiya masalalari." Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi 6 (2023): 643-648.
13. Muratova, G. R., and Q. T. Arabboyev. "The role of sport in people's health." International Journal of Early Childhood Special Education 14 (2022).
14. Muratova, Gulnara Rashitovna. "PEDAGOGICAL TECHNOLOGY OF PHYSICAL EDUCATION FOR STUDENTS BASED ON THE POSSIBILITY OF AEROBICS." INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". Vol. 3. No. 1. 2024.
15. Rashitovna, Muratova Gulnara, and Atadjanov Asadbek Baxtiyor o'g'li. "IMPLEMENTATION OF NEW TECHNOLOGIES IN THE AEROBICS PROGRAM FOR FEMALE STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 13.01 (2024): 38-41.
16. Муратова, Гулнара Рашитовна. "История древней и современной лёгкой атлетики." Ученый XXI века 20 (2016).
17. Muratova, G. R. "MODERN REQUIREMENTS FOR THE CREATION OF EDUCATIONAL PUBLICATIONS ON PHYSICAL EDUCATION FOR SECONDARY SCHOOLS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.5 (2023): 1-4.
18. Муратова, Гулнара Рашитовна. "УКРЕПЛЕНИЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗМА ЧЕРЕЗ ЗАНЯТИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРОЙ И СПОРТОМ." INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS.. Vol. 2. No. 7. 2023.
19. Makhmudovich, Gafurov Abdushokir. "Medical problems of sports selection and sports orientation." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 313-318.
20. Abdumalikovich, Umarov Abdusamat. "Analysis Of The Paradigm Of The Principles Of Overcoming The Problems Of Productivity Of Researchers Conducting Research In The Field Of Physical Culture." Journal of Positive School Psychology (2023): 529-534.
21. Умаров, Абдусамат, and Махлиёхон Хожимуродова. "OILA VA NIKOH SHAROITIDA AYOLLAR SPORTINING MUAMMOLARI." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 3.6 (2023): 313-317.

22. Urinbaeva, Umarova Zulkumor, and Umarov Abdusamat Abdumalikovich. "THE IMPORTANCE OF TRAVEL AND TOURISM IN FORMING A HEALTHY LIFESTYLE IN HIGH SCHOOL STUDENTS." Open Access Repository 9.10 (2023): 1-7.

23. Abdumalikovich, Umarov Abdusamat, and Umarova Zulkumor Urinboyevna. "THE USE OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE QUALITY OF PHYSICAL EDUCATION LESSONS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 421-424.

24. Umarov, Abdusamat, and Layloxon Maxmudova. "AHOLINING TURLI QATLAMLARINI DAM OLISH MASKANLARI VA SOG'LOMLASHTIRUVCHI TADBIRLARINING AHAMIYATI." Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi 7 (2023): 726-731.